

“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJda Birja a‘zolari tomonidan qonunchilik talablarini bajarilishi, korrupsiyaga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, axborot xavfsizligi hamda birjaning me‘yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etish mavzusida yig‘ilish o‘tkazildi

Joriy yilning 12-mart kuni Samarqand viloyat hududiy filialida “O‘zRTXB” AJda Birja a‘zolari tomonidan qonunchilik talablarini bajarilishi, korrupsiyaga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish hamda Birjaning meyoriy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etish bo‘yicha yig‘ilish tashkil etildi.

“O‘zRTXB” AJ Komplayens-nazorat va axborot xavfsizligi bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan yig‘ilishda birja a‘zolari va markaziy apparat xodimlari ishtirok etdilar.

Yig‘ilishda, “O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi” AJ Samarqand filiali boshqaruvchisi F. Yuldashev so‘zga chiqib birja a‘zolari tomonidan Birja savdo qoidalarida belgilangan qoidabuzarlik holatlarini sodir etish holatlari ko‘p kuzatilayotganligini aytib o‘tdi.

Xususan, Samarqand viloyat hududiy filialida ro‘yxatdan o‘tgan birja a‘zolari tomonidan 2023-yil davomida jami 23 ta qoidabuzarlik sodir etilganlib, shundan 19 ta holatda birja bitimini ro‘yxatga olmaslik qoidabuzarligi kuzatilgan.

O‘z navbatida, o‘tgan 2023-yilda birja bitimini ro‘yxatga olmaslik holati bo‘yicha 14 ta qoidabuzarlik birinchi marotaba sodir etilgan bo‘lsa, 5 ta holatda mazkur qoidabuzarlik takroran sodir etilgan.

Shu bois, birja a‘zolari tomonidan qonunchilik talablariga hamda Birja savdo qoidalariga amal qilgan holda o‘z faoliyatlarini olib borishlari lozimligini alohida ta’kidlab o‘tildi.

Shundan so‘ng, “O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi” AJ Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i O. Xasanov so‘zga chiqib yig‘ilish ishtirkochilariga O‘zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko‘tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko‘rinishlariga qat’iy murosasizlik madaniyatini shakllanayotganligini alohida ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 6-noyabrda 2038-son bilan ro‘yxatga olingan birja a‘zosi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirishda tavakkalchilik darajasini aniqlash, baholash va kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish shartligi belgilangan.

Birja a‘zolari tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida o‘zlariga yuklatilgan

majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishlari hamda o‘z faoliyatlarini qonunchilik hujjatlariga asosan olib borishlari lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish davomida birja a‘zolari tomonidan birjada ro‘yxatdan o‘tgan kompyuter qurilmalariga qo‘shimcha dasturiy vositalar o‘rnatish yoki ularni saqlash, shuningdek savdo vaqtida foydalanish taqiqlanganligiga alohida urg‘u berilib, 2023-yil noyabr oyida Samarqand filialida faoliyat yurituvchi 13015, 13029, 13076 hamda 13088-sonli birja a‘zolariga tegishli kompyuter qurilmalarida Birjada taqiqlangan qo‘shimcha dasturiy vositalar mavjudligi aniqlanganligi haqida ma’lum qildi.

Shu bilan birga, Birjaning elektron tarmog‘iga begona kompyuter qurilmalari ulanganligi aniqlangan. 13088-sonli brokerlik idorasi rahbari axborot xavfsizligi talablarini qo‘pol ravishda buzgan holda Birjaning elektron tizimini jiddiy xavf ostida qoldirganligi ta’kidlandi.

Barcha birja a‘zolariga, bu kabi holatlar kelajakda aniqlangan taqdirda, eng jiddiy choralar ko‘rilishi, jumladan, materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilishi bo‘yicha ogohlantirish berildi.

“O‘zRTXB” AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 16-oktabrdagi bayonnomasi asosida Birja savdo qoidalariga o‘zgartirishlar kiritilib, Birja savdo qoidalarini buzganlik uchun jarima miqdorlari oshirilganligini ma’lum qildi.

Xususan, Birja savdo qoidalarining 240-bandida belgilangan qoidabuzarlikni, ya’ni kompyuter qurilmalarida birja tomonidan o‘rnatilgan tizimlardan farq qiladigan qo‘shimcha dasturiy vositalar o‘rnatish yoki ularni saqlash, shuningdek savdo vaqtida foydalanganlik uchun, jarima miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz barobari miqdorida belgilanganligi aytib o‘tildi.

Intizomiy jazo chorasi qo‘llanilgandan so‘ng mazkur qoidabuzarlikni sodir etish, birja a‘zosi va uning treyderlari 2 yil muddatga birja savdolaridan chetlashtirilishiga olib kelishi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tildi.

Shu bilan birga, birja a‘zolari tomonidan qonunchilik talablarini bajarilishi, korrupsiyaga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish hamda Birjaning me‘yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etishlari lozimligi alohida ta’kidlab o‘tildi.

Yig‘ilish yakunida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.